
NURONIYLAR UCHUN KONSERT DASTURI NAMOIYISH ETILDI

4-sonli bolalar musiqa va san'at maktabida mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash hamda shahar madaniyat bo'limi hamkorligida "Keksalar haftaligi" doirasida madaniy tadbir o'tkazildi.

Tadbirda Respublika mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi boshqarma boshlig'i Sobirjon G'aniev hamda viloyat boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Zokirjon Raxmonovlar so'zga chiqishib, mamlakatimizda "Keksalar haftaligi" doirasida o'tkazilayotgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar haqida to'xtalib o'tishdi.

Tadbirda shahar madaniyat bo'limining badiiy jamolari, viloyat musiqali drama teatri aktyorlari, Farg'ona ixtisoslashtirilgan maqom va san'at hamda 4-sonli bolalar musiqa va san'at maktablarining konsert dasturlari hamda viloyat musiqali drama teatri ijodkorlari tomonidan "Al-Farg'oniy" spektakli namoyish etildi. Tadbir ishtirokchilari bo'lgan keksa-nuroniylar madaniy hordiq chiqarishib, tashkilotchilarga o'z minnatdorchiliklarini bildirishdi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-07 00:21:22